




TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL
YANVAR-FEVRAL**

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, Toshkent viloyatida jami 1796,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 113,4%ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



2024- yil 1-mart holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, birlikda

Yillar kesimida soni



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan quilib ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 93,0 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 51,0 foiz ulushni tashkil etib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 91,9foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 13,4 foiz ulushni tashkil etib, o’sish sur’ati 110,3 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurili sh ishlari yo‘nalishi esa 35,6 foiz ulushni va o’tgan yilga nisbatan 89,2 foizni tashkil etdi.

| | Holatiga: | | o‘tgan yilga nisbatan, %da |
|--------------------------|----------------|----------------|-------------------------------|
| | 01.03.2024- y. | 01.03.2023- y. | |
| Toshkent viloyati | 2798 | 3006 | 93,0 |
| <i>shaharlar:</i> | 118 | 140 | 84,3 |
| Nurafshon | 133 | 140 | 95,0 |
| Olmaliq | 163 | 189 | 86,2 |
| Angren | 117 | 131 | 89,3 |
| Bekobod | 98 | 122 | 80,3 |
| Ohangaron | 294 | 272 | 108,1 |
| Chirchiq | 71 | 77 | 92,2 |
| Yangiyo‘l | | | |
| <i>tumanlar:</i> | 58 | 62 | 93,5 |
| Oqqo‘rg‘on | 53 | 71 | 74,6 |
| Ohangaron | 74 | 100 | 74,0 |
| Bekobod | 122 | 107 | 114,0 |
| Bo‘stonliq | 96 | 117 | 82,1 |
| Bo‘ka | 57 | 68 | 83,8 |
| Quyi Chirchiq | 228 | 223 | 102,2 |
| Zangiota | 170 | 187 | 90,9 |
| Yuqori Chirchiq | 300 | 313 | 95,8 |
| Qibray | 88 | 95 | 92,6 |
| Parkent | 61 | 53 | 115,1 |
| Piskent | 144 | 146 | 98,6 |
| O‘rta Chirchiq | 85 | 101 | 84,2 |
| Chinoz | 123 | 138 | 89,1 |
| Yangiyo‘l | 145 | 154 | 94,2 |
| Toshkent | 2798 | 3006 | 93,1 |

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini ulushi, %da


Qibray (10,9)



Chirchiq sh. (10,5)



Zangiota (8,1)



Qurilish ishlari

2024- yil yanvar-fevral oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so'm | shu jumladan: | | |
|--------------------------|------------------------------------|---------------------------------|----------------------------|--------------------|
| | | yirik qurilish tashkilotlari | kichik va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| Toshkent viloyati | 1796,9 | 279,8 | 997,5 | 519,6 |
| shaharlar: | | | | |
| Nurafshon | 90,9 | 0 | 81,9 | 9 |
| Olmaliq | 260,7 | 202,7 | 53 | 5 |
| Angren | 59,9 | 2 | 45,1 | 12,8 |
| Bekobod | 34,2 | 0,7 | 21 | 12,5 |
| Ohangaron | 22 | 9,3 | 4,3 | 8,4 |
| Chirchiq | 83,9 | 1 | 75,8 | 7,1 |
| Yangiyo'l | 31,9 | 0,1 | 28,7 | 3,1 |
| tumanlar: | | | | |
| Oqqo'rg'on | 36,3 | 0 | 29,2 | 7,1 |
| Ohangaron | 58,2 | 0 | 43,4 | 14,8 |
| Bekobod | 19,3 | 0,5 | 4,3 | 14,5 |
| Bo'stonliq | 74,7 | 3,5 | 22,4 | 48,8 |
| Bo'ka | 48,6 | 0 | 36,4 | 12,2 |
| Quyi Chirchiq | 67,1 | 0 | 45,7 | 21,4 |
| Zangiota | 164,1 | 0 | 72,3 | 91,8 |
| Yuqori Chirchiq | 126,8 | 2 | 80,1 | 44,7 |
| Qibray | 260,3 | 43,3 | 138,1 | 78,9 |
| Parkent | 46,9 | 0 | 24,6 | 22,3 |
| Piskent | 49,8 | 0 | 43 | 6,8 |
| O'rta Chirchiq | 83,8 | 8,4 | 40,2 | 35,2 |
| Chinoz | 31 | 0 | 22,1 | 8,9 |
| Yangiyo'l | 47,9 | 4,9 | 28,1 | 14,9 |
| Toshkent | 98,6 | 1,3 | 58,1 | 39,2 |

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 279,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 105,8 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 15,6 % tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,5 %ni to‘g‘ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 108,5 %ni tashkil etgan holda 997,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

55,5

2024- yil
Yanvar-fevral

57,8

2023- yil
Yanvar-fevral



MA‘LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Qibray tumani (138,1 mlrd.so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 13,8%), Yuqori Chirchiq (80,1 mlrd.so‘m yoki 8,0%) Nurafshon shaxri (81,9 mlrd.so‘m yoki 8,2%) ga to‘g‘ri keldi.

Norasmiy sektor
hissasiga to'g'ri kelgan
qurilish ishlari ulushi
28,9 tashkil etdi yoki
519,6 mlrd. so'm
miqdorida qayd etildi.
2023- yilning yanvar-
fevral oyiga nisbatan
129,6 %ni tashkil etdi.

2023 yil
yanvar-fevral

366,7
mlrd. so'm

2024- yil
yanvar-fevral

519,6
mlrd. so'm

25,5%

28,9%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat tashkilotlar
mulkchiligidagi
tomonidan jami
26,6 mlrd. so'm qurilish ishlari
bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi
tashkilotlar tomonidan esa
1770,3 mlrd. so'm qurilish ishlari
bajarildi. Ularning viloyatdagi
ulushi mos ravishda **1,5 %** va **98,5 %**
ni tashkil etdi.

Davlat mulki

Nodavlat mulki



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70